

- This is not registered version of TotalDocConverter

- Xop, sizga nima kerak?
- Mana ro'yxat... xo'-o'-sh... O'nta tank, yigirmata bronetransportyor, o'n beshta qiruvchi uchoq, o'ttizta Ziyodbotir, qirqta svetofof, shuncha militsioner, beshta go'sht tashiydigan mashina.
- Ziyodbotirlar allaqachon tugab ketgan. O'rniga tank olaqoling. Yoki svetofof.
- Shuncha svetofofni nima qilaman? Keyin, har qaysisining yoniga bittadan militsioner ham kerak bo'ladi. Mayli, go'sht tashiydigan mashina ko'proq bo'laqolsin... E, yo'q, yaxshisi anavi sariq yubkali...
- Natashami?
- Ha, shunga o'xshagan chiroyli-chiroylisidan besh-oltitasini bering.
- Bu boshqa gap, - dedi o'yinchoq magazini sotuvchisi,- bog'changizdagi qizaloqlar ham bir yayrab qolishsin-da, omborchi tog'a.

1978